



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “24” may

QAROR № 10

Toshkent sh.

**Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha
uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 27- fevraldagi “2023- yil uchun Statistika dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 80-son qaroriga muvofiq, asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, Statistika agentligi qaror qiladi:

1. Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 26- oktabrdagi 42-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Ushbu qaror tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

2023-yil 24 may

10 - sonli qaroriga ilova

Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Mazkur Uslubiy nizom Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) statistika bo'limi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) statistika qo'mitasining tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan.

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizom aholi bo'yicha birlamchi ma'lumotlardan foydalangan holda aholi soni va uning tarkibi, tug'ilganlar, vafot etganlar, tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralganlar soni, doimiy yashash maqsadida mamlakat hududiga chet mamlakatlardan ko'chib kelganlar va chet mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni, shuningdek mamlakat ichida va uning hududlarida doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ketganlar soni to'g'risidagi asosiy tushunchalar, ko'rsatkichlarni hisoblash va shakllantirish usullarini belgilab beradi.

2. Uslubiy nizom Statistika organlari tomonidan demografik jarayonlarning joriy hisobini tashkil etish va demografik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

3. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

demografiya statistikasi – ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning sohalaridan biri bo'lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlarining joylashuvi va takror hosil bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig'ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug'ullanadi;

aholi – ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi insonlar jamoasi bo'lib, ushbu insonlar jamoasi aholi soni sifatida hisobga olinadi;

doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi;

aholining milliy tarkibi – aholining millati bo'yicha taqsimlanishi;

shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi;

qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda - qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi;

yosh – imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o'lgan, tug'ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.

mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar **mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar**, 60 yoshdan katta erkaklar va 55 yoshdan katta ayollar **mehnatga layoqatli yoshdan kattalar** toifalariga ajratiladi);

aholining tabiiy harakati – aholi sonining tabiiy o'zgarishini ifodalovchi tug'ilish va o'lim holatlarining majmui bo'lib, unga nikohlar va nikohdan ajralish holatlari ham kiritiladi;

tug'ilish - homiladorlik davomiyligidan qat'iy nazar homilaning ona organizmidan to'liq ajralishi;

tirik tug'ilish – nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim;

o'lik tug'ilish – nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo'lmasa bola o'lik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim;

o'lim (vafot etish) – tananing hayotiy faoliyatining biologik va fiziologik jarayonlarini to'liq to'xtashi;

aholining qayta ko'payishi – tug'ilish va o'lim holatlari natijasida aholining yangilanishi (bolalar tug'ilishi hisobiga avlod almashinuvi);

reproduktiv (fertil) davr – ayolning tug'ish layoqatiga ega bo'lgan (15 dan 49 yoshgacha) davri;

perinatal o'lim – o'lik tug'ilish va 0-6 kun oralig'ida sodir bo'lgan o'lim hodisasi;

erta neonatal o'lim – tug'ilishdan so'ng 0-6 kun oralig'ida sodir bo'lgan o'lim hodisasi;

neonatal o'lim – tug'ilishdan so'ng 0-27 kun oralig'ida sodir bo'lgan o'lim hodisasi;

postneonatal o'lim – tug'ilishdan so'ng 28-365 kun oralig'ida sodir bo'lgan o'lim hodisasi;

go'daklar o'limi – hayotining birinchi yilida sodir bo'lgan bolalar o'limi hodisasi;

bolalar o'limi – 0-4 yoshda bo'lgan bolalar o'limi hodisasi;

onalar o'limi - homiladorlik sababli ro'y bergan (homiladorlikning davomiyligi va uning lokalizatsiyasidan qat'iy nazar), homiladorlik bilan bog'liq uning o'zi yoki uning davolanishda og'irlashgani, lekin baxtsiz hodisa yoki bexosdan yuz bergan sababga bog'lik bo'lmagan bo'lib homiladorlik davri yoki u tugagandan 42 kundan so'ng ro'y bergan ayollar o'limi;

o'lim sabablari – o'linga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari;

tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi – tug'ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish yillari soni. Bunda ushbu ko'rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo'yicha o'lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;

ma'lum yoshga to'lganlar uchun kutilayotgan umr davomiyligi – har bir keyingi yoshga to'lgan davrda, yoshlar bo'yicha o'lim darajasi ko'rsatkichi, ushbu ko'rsatkich hisoblangan yil darajasida saqlanib qolgan shartlarda ma'lum yoshga to'lganlarning kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish yillari soni;

oila – nikoh yoki birinchi darajali qarindoshlik munosabatlariga asoslangan, umumiy hayot va o'zaro mas'uliyat orqali bog'langan kishilar birlashmasi;

ko'p bolali oilalar – to'rt nafar va undan ortiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila ko'p bolali oiladir. Bunda, agar to'rt nafar va undan ortiq bolalaridan bir nafari yoki undan ko'prog'i ta'limning kunduzgi shaklida (o'rta maxsus va professional, oliy ta'lim) ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan hamda yigirma ikki yoshga to'lmagan bo'lsa, bu oila ham ko'p bolali oila deb hisoblanadi;

nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli.

Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi;

nikoh yoshi – O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya)), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin;

nikoh holati – shaxsning nikohga nisbatan huquqiy me'yorlar va mamlakat urf-odatlariga muvofiq belgilanadigan holati (nikohda bo'lmagan, nikohda bo'lgan, tul, ajrashgan);

nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh sud hal qiluv qarorlari asosida yoki FHDYo ajralishni ro'yxatdan o'tkazganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi;

aholining umumiy o'sishi – aholining tabiiy o'sishi va migratsion o'sishining yig'indisi;

aholining tabiiy o'sishi – ma'lum bir davrda jami tug'ilganlarning jami o'lganlarga nisbatan absolyut miqdorlari farqi (ushbu farq musbat yoki manfiy miqdor bo'lishi mumkin);

aholi migratsiyasi – aholining ma'lum hudud (mamlakat, viloyat, tuman va boshqalar) chegarasi orqali yashash manzilini o'zgartirish maqsadida boshqa manzilga ko'chishi;

yashash joyi – fuqaroning muayyan yashash joyi bo'yicha (turar joy, "Saxovat", "Muruvvat", "Mehribonlik" uylari, oila tipidagi bolalar uylari, bolalar uchun maktab-internatlar, go'daklar uylari, SOS bolalar mahallalari, yotoqxonalar) doimiy yoki asosan yashaydigan joy;

migrant – migratsiya jarayonlarida bevosita ishtirok etuvchi shaxs bo'lib, har bir migrant o'zining ketgan hududi uchun ko'chib ketuvchi va kelgan hududi uchun ko'chib keluvchi shaxs hisoblanadi;

tashqi migratsiya – jismoniy shaxslarning boshqa davlatlardan O'zbekiston Respublikasi hududiga yoki O'zbekiston Respublikasidan boshqa xorijiy davlatlarga ko'chib yurishi;

ichki migratsiya – kishilarning (vaqtincha yoki doimiy) mamlakatning bir hududidan boshqa hududga yashash joyini o‘zgartirish maqsadida ko‘chib yurishi;

ko‘chib kelganlar soni – hisobot davrida ma’lum hududga boshqa hududlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar soni;

ko‘chib ketganlar soni – hisobot davrida ma’lum hududdan boshqa hududga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni;

aholining migratsion saldosi (o‘sishi yoki kamayishi) – ma’lum bir davrda muayyan hududga kelgan aholi soni va ushbu hududdan ketgan aholi soni o‘rtasidagi absolyut miqdordagi farq bo‘lib, musbat (agar kelganlar soni ketganlar sonidan ko‘p bo‘lsa) yoki manfiy (agar kelganlar soni ketganlar sonidan kam bo‘lsa) miqdor bo‘lishi mumkin;

aholi sonini baholash – hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug‘ilganlar va ko‘chib kelganlar sonini qo‘shib, o‘lganlar va ko‘chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil qilinadigan mamlakat hududi yoki uning bir qismi aholisi sonini dastlabki aniqlash;

aholini ro‘yxatga olish – O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida o‘tkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish hamda ularga ishlov berish davriy jarayoni;

demografik jarayonlarning joriy hisobi – har oyda ichki ishlar, adliya organlaridan statistika organlariga kelib tushadigan aholi to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumotlar asosida, tug‘ilganlar, o‘lganlar, ko‘chib kelganlar, ko‘chib ketganlar, ro‘yxatga olingan nikohlar va nikohdan ajralishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini yuritish.

II. Demografik jarayonlarning joriy hisobini tashkil etish uchun ma’lumot manbalari

4. Aholi soni va tarkibini tavsiflovchi ma’lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlaridan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi) olingan aholi to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumotlar qayta ishlanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan rasmiylashtirilgan fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari (tug‘ilganlik, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralganlik hamda o‘lim haqida dalolatnoma yozuvlari) ma’lumotlari aholining tabiiy harakati ma’lumotlarini shakllantirishda foydalaniladi. Bunda tug‘ilgan bola ota-onasining, o‘lganlar, nikoh tuzganlar

va nikohdan ajralganlar ularning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy yashash joylari bo'yicha hisobga olinadi.

6. Aholi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar mazkur uslubiy nizomning 2-ilovasida keltirilgan manbalar ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

7. Demografik ma'lumotlarni qayta ishlash va demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda quyidagi statistik tasniflagichlardan foydalaniladi:

a) "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy ob'ektlarni belgilash tasniflagichi" (MHOBT);

b) Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 10-qayta ko'rilgan Xalqaro Kasalliklar Tasniflagichi (XKT-10);

v) ISO 3166 xalqaro standart bo'yicha "Страны мира" Statistik klassifikatori.

III. Asosiy demografik ko'rsatkichlarni hisoblash

8. **Hisobot yili boshiga jami aholi soni** doimiy ro'yxatdagi aholi soni asosida hisoblanadi.

Doimiy aholi sonini baholash oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Ma'lum bir davr uchun doimiy aholi sonini baholash (P) hisobot davri boshidagi doimiy aholi soniga hisobot davrida tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, hisobot davrida o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi (1-ilova 2-satr) hamda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P = P_0 + (N - M) + (I - E)$$

bu yerda,

P – doimiy aholi soni (kishi);

P_0 – hisobot davri boshiga doimiy aholi soni (kishi);

N – hisobot davrida tug'ilganlar soni (kishi);

M – hisobot davrida o'lganlar soni (kishi);

I – doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni (kishi);

E – doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni (kishi).

Aholi sonini baholashda tug'ilganlar, o'lganlar, ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni quyidagicha aniqlanadi:

a) tug'ilganlar sonini (N) aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug'ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug'ilgan hududi aniqlanadi va MHOBT xos raqamlarga biriktiriladi. Ushbu xos raqamlarga qarab tug'ilgan chaqaloqlar o'sha hududning aholisi soniga qo'shiladi.

b) o'lganlar soni (M) o'lgan shaxsning doimiy ro'yxatda turgan joyiga qarab MHOBT xos raqamlarga biriktiriladi. Ushbu xos raqamlarga qarab o'lganlar o'sha hududning aholisi sonidan ayriladi.

Xorijiy davlatda o'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga "O'lim to'g'risidagi guvohnoma" o'lim sodir bo'lgan xorijiy davlatning Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan rasmiylashtirilgan taqdirda, ushbu o'lgan fuqarolar bo'yicha statistik hisob alohida tartib asosida amalga oshiriladi.

v) ko'chib kelganlar doimiy yashash joyiga qarab MHOBT va ISO 3166 xalqaro standartiga asosan "Jahon mamlakatlari" statistik tasniflagichi bo'yicha xos raqamlariga biriktiriladi. Ushbu xos raqamlarga qarab ko'chib kelganlar uch qismga ajratiladi: hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) ichidan, hududlararo (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) hamda xorijdan doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar. Ularning barchasi qo'shib jami doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlarni tashkil etadi hamda kelgan hududning aholisi soniga qo'shiladi, ya'ni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I = I_d + I_r + I_f ,$$

bu yerda,

I – jami doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni (kishi);

I_d – hudud ichki ma'muriy birliklariga boshqa ma'muriy birliklaridan doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni (kishi);

I_r – hududlararo doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni (kishi);

I_f – xorijdan doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni (kishi).

g) jami doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar uch qismga: hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) ichiga, hududlararo (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) hamda xorijga doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlarga ajratiladi. Ularning barchasi qo'shib jami doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlarni tashkil etadi hamda

ketgan hududning aholisi sonidan ayriladi, ya'ni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E = E_d + E_r + E_f ,$$

bu yerda,

E – jami doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni (kishi);

E_d – hudud ichki ma'muriy birliklaridan boshqa ma'muriy birliklariga doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni (kishi);

E_r – hududlararo doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni (kishi);

E_f – xorijga doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni (kishi).

hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) ichiga hamda hududlararo (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) ichiga hamda hududlararo (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlarning ketgan joyiga nisbatan doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar deb hisobga olinadi, ya'ni:

$$I_d = E_d \text{ va } I_r = E_r$$

Aholi umumiy sonini hisoblash jami respublika va uning alohida ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha amalga oshiriladi. Aholi sonini shahar va qishloq joylari bo'yicha hisoblashda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar natijalari – qishloq aholi punktlarini shahar aholi punktlariga o'zgarishi (qisman yoki to'liq), shahar joylari tarkibiga kiritilishi, shuningdek shahar joylarining qishloq aholi punktlariga o'zgartirilishi va boshqalar hisobga olinadi.

Doimiy aholining yillik o'rtacha soni ($\bar{P}$) hisobot davri boshiga va hisobot davri oxiriga doimiy aholi sonining o'rtacha arifmetik sonini hisoblash (1-ilova, 3-satr) quyidagi formula orqali hosil qilinadi:

$$\bar{P} = \frac{P_0 + P_1}{2}$$

bu yerda,

$\bar{P}$ – doimiy aholining hisobot davridagi o'rtacha soni (kishi);

P_0 – hisobot davri boshiga doimiy aholi soni (kishi);

P_1 – hisobot davri oxiriga doimiy aholi soni (kishi);

Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil etish uchun qator ko'rsatkichlar mavjud.

Aholining absolyut o'sishi (kamayishi) – ma'lum davrda aholi sonining miqdoriy o'sishini (yoki kamayishini) ifodalab, ko'rib chiqilayotgan davr oxiridagi aholi sonidan ko'rib chiqilayotgan davr boshidagi aholi sonining ayirmasi orqali hisoblanadi.

O'sish sur'ati – ma'lum bir davrdagi aholi sonining necha martaga (foizga) oshgani yoki kamayganini ko'rsatadi.

Misol uchun:

2020 yil 1 yanvar holatiga aholi soni – 33 905,2 ming kishi;

2021 yil 1 yanvar holatiga aholi soni – 34 558,9 ming kishi;

O'sish sur'ati – 101,9 % ($34\,558,9/33\,905,2 \cdot 100\%$).

Aholi zichligi muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi.

Misol uchun:

2021 yil 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni – 34 558,9 ming kishi;

2021 yil 1 yanvar holatiga hudud maydoni – 448,97 ming kv.km;

2021 yil 1 yanvar holatiga aholi zichligi – 77,0 kishi / kv. km.
($34\,558,9/448,97$) .

10. **Aholining o'rtacha yoshi ($\bar{X}$)** har bir yoshdagi aholi sonini shu yoshga ko'paytirib, jami aholi soniga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$\bar{X} = \frac{\sum_{i=0}^n x_i * P_i}{P}$$

bu yerda,

$\bar{X}$ – aholining o'rtacha yoshi (yosh);

x_i – aholining yoshi;

P_i – x_i yoshdagi aholi soni (kishi);

P – jami aholi soni (kishi).

11. **Demografik bosim koeffitsiyenti** – 1000 ta mehnatga layoqatli yoshdagi (16-54 yoshli ayollar va 16-59 yoshli erkaklar) aholiga qancha mehnat yoshidan kichiklar (0-15 yoshlilar), mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar) to'g'ri kelishini anglatadi va quyidagicha hisoblanadi. Demografik bosim uch turga ajratiladi:

a) **Bolalar va o'smirlarning demografik bosim koeffitsiyenti:**

$$Kch_l = \frac{P_{0-15}}{Pf_{16-54} + Pm_{16-59}} * 1000$$

bu yerda,

Kch_l – demografik bosim koeffitsiyenti (promille);

P_{0-15} – mehnat yoshidan kichiklar (0-15 yoshlilar) soni (kishi);

$Pf_{16-54} + Pm_{16-59}$ – mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni (kishi).

b) **Keksalarning demografik bosim koeffitsiyenti (kr_l):**

$$Kr_l = \frac{Pf_{55+} + Pm_{60+}}{Pf_{16-54} + Pm_{16-59}} * 1000$$

bu yerda,

Kr_l – mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (promille);

$Pf_{55+} + Pm_{60+}$ – mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar) soni;

$Pf_{16-54} + Pm_{16-59}$ – mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni (kishi).

c) **Demografik bosimning yig'indi koeffitsiyenti (kt_l):**

$$Kt_l = \frac{P_{0-15} + Pf_{55+} + Pm_{60+}}{Pf_{16-54} + Pm_{16-59}} * 1000$$

Kt_l – demografik bosimning yig'indi koeffitsiyenti (promille);

P_{0-15} – mehnat yoshidan kichiklar (0-15 yoshlilar) soni (kishi);

$Pf_{55+} + Pm_{60+}$ – mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar) soni (kishi);

$Pf_{16-54} + Pm_{16-59}$ – mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni (kishi).

12. Aholining tabiiy harakati. Aholining tabiiy harakati aholi sonining o'zgarishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan demografik hodisalarni o'z ichiga oladi. Ularga tug'ilish, o'lim, o'lik tug'ilish, nikoh va nikohdan ajralishlar kiradi.

Aholi tabiiy harakatini tavsiflash uchun tug'ilish, o'lim, nikohlar va nikohdan ajralishlar koeffitsiyentlari qo'llanilib, bunda 1 000 (promille), 10 000 (detsimille) va 100 000 (protsentemille) aholiga nisbatan hisoblanadi. Quyida ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi keltirilgan.

1000 aholiga nisbatan tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti (K_N) – hisobot davrida jami tug'ilganlar (N) (tirik tug'ilganlar) sonini hisobot davridagi doimiy

aholining o'rtacha soniga ($\bar{P}$) bo'lib, natijani 1000 ga ko'paytirish orqali quyidagi formula yordamida hisoblanadi (1-ilova, 5-satr):

$$K_N = \frac{N}{\bar{P}} * 1000$$

bu yerda,

K_N – tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti (promille);

N – tug'ilganlar soni (kishi);

$\bar{P}$ –doimiy aholining hisobot davridagi o'rtacha soni (kishi).

Tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti (K_F) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K_F = \frac{N}{\bar{F}_{15-49}} * 1000$$

bu yerda,

K_F – tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti (promille);

$\bar{F}_{15-49}$ – hisobot davrida 15 - 49 yoshli ayollarning o'rtacha soni (kishi);

N – hisobot davrida jami tug'ilganlar soni (kishi).

Tug'ilishning intensivlik (yosh) koeffitsiyenti (KF_x) – x yoshdan $x+n$ yoshgacha bo'lgan har 1000 ta ayollarga to'g'ri keladigan shu yoshdagi ayollardan tug'ilgan bolalarning o'rtacha soni quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$KF_x = \frac{N_x}{\bar{F}_x} * 1000$$

bu yerda,

KF_x – tug'ilishning intensivlik (yosh) koeffitsiyenti (promille);

$\bar{F}_x$ – ma'lum yosh guruhidagi ayollarning hisobot davridagi o'rtacha soni (kishi);

N_x – hisobot davrida ma'lum yosh guruhidagi ayollardan tug'ilgan chaqaloqlar soni (kishi).

Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti (KF_T) har bir yosh oralig'ining uzunligini hisobga olgan holda yosh koeffitsiyentlarining yig'indisi sifatida hisoblanadi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$KF_T = \sum_{x=15}^{49} KF_x$$

bu yerda,

KF_T – tug‘ilishning yig‘indi ko‘effitsiyenti;

KF_x – tug‘ilishning intensivlik (yosh) ko‘effitsiyenti (promille);

Mos yosh guruhlaridagi ayollardan tug‘ilgan bolalar soni mos yosh guruhlaridagi ayollarning o‘rtacha soniga bo‘linib mingga ko‘paytirilib mos yosh guruhlaridagi yig‘indi qo‘shiladi yosh guruhlari soniga bo‘linadi va mingga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Aholining qarish ko‘effitsiyenti (darajasi).

Aholining qarish darajasini (K_x) tavsiflash uchun umumiy aholi sonida 65 va undan katta yoshdagilarning ulushi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_x = \frac{P_{65+}}{P} * 100$$

bu yerda,

K_x – aholining qarish ko‘effitsiyenti (foiz);

P_{65+} – 65 va undan katta yoshdagi aholi soni (kishi);

P – jami aholi soni (kishi).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tasnifiga ko‘ra, agar aholining umumiy sonidagi 65 va undan katta yoshdagi odamlar ulushi 7 % dan oshsa, aholi keksa hisoblanadi;

Keksalik salohiyati ko‘effitsiyenti.

Aholining keksalik salohiyatini (K_i) tavsiflash uchun umumiy aholi sonida 40+59 yoshdagilarning ulushi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_i = \frac{P_{40+59}}{P} * 100$$

bu yerda,

K_i – keksalik salohiyati ko‘effitsiyenti;

P_{40+59} – 40-59 yoshdagi aholi soni (kishi);

P – jami aholi soni (kishi).

Ma’lumki, aholi keksayish jarayonining kelgusida rivojlanishi asosan uning zahirasiga, ya’ni yetuklik (40-59 yosh) yoshidagi aholining miqdoriga bog‘liqdir.

Aholining uzoq umr ko‘rish koeffitsiyenti (darajasi) (K_L) – aholining 80 va undan katta yoshga yetishi. Uzoq umr ko‘rish darajasini aniqlash uchun bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: har 100 000 aholiga to‘g‘ri keladigan 80 va undan katta yoshdagi aholi soni; uzoq umr ko‘rish koeffitsiyenti, bu keksalikka qadar yashaydigan har yuz kishidan qanchasi uzoq umr ko‘rish yoshiga yetishini aks ettiradi hamda quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_L = \frac{P_{80+}}{P_{65+}} * 100\,000$$

bu yerda,

K_L – aholining uzoq umr ko‘rish koeffitsiyenti (protsentemille);

P_{80+} – 80 yosh va undan katta yoshdagi aholi soni (kishi);

P_{65+} – 65 yosh va undan katta yoshdagi aholi soni (kishi).

1000 ta aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti (K_M) – hisobot davrida jami o‘lganlar (M) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha (P) soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi (1-ilova, 7-satr):

$$K_M = \frac{M}{P} * 1000$$

bu yerda,

K_M – o‘lim koeffitsiyenti (promille);

M – o‘lganlar soni (kishi);

P – doimiy aholining hisobot davridagi o‘rtacha soni (kishi).

O‘limning yosh koeffitsiyenti (KM_x) hisobot davrida muayyan yoshda o‘lganlar (M_x) sonini shu yoshdagilarning o‘rtacha (P_x) soniga bo‘lish orqali quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$KM_x = \frac{M_x}{P_x} * 1000;$$

bu yerda,

KM_x – o‘limning yosh koeffitsiyenti (promille);

M_x – muayyan yoshda o‘lganlar soni (kishi);

P_x – doimiy aholining muayyan yoshdagi o‘rtacha soni (kishi).

100 000 ta tug‘ilganlarga nisbatan onalar o‘limi koeffitsiyenti (KM_F) vafot etgan onalar sonini tug‘ilganlar (tirik) soniga bo‘lib, 100 000 ga ko‘paytirish orqali quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi (1-ilova, 18-satr):

$$KM_F = \frac{M_F}{N} * 100\,000$$

bu yerda,

KM_F – onalar o‘limi koeffitsiyenti (protsentemille);

M_F – vafot etgan onalar soni (kishi);

N – tug‘ilganlar soni (kishi).

1000 ta tug‘ilganga nisbatan (1 yoshgacha bolalar o‘limi) go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti (Km_0) quyidagi formula orqali hisoblanadi (1-ilova, 20-satr):

$$Km_0 = \left(\frac{M_0}{N_0} + \frac{M_{-1}}{N_{-1}} \right) * 1000$$

bu yerda,

Km_0 – go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti (promille);

M_0 – joriy yilda tug‘ilib, shu yili o‘lgan 1 yoshgacha bolalar soni (kishi);

M_{-1} – o‘tgan yilda tug‘ilib, joriy yilda o‘lgan 1 yoshgacha bolalar soni (kishi);

N_0 – joriy yilda tug‘ilganlar soni (kishi);

N_{-1} – o‘tgan yilda tug‘ilganlar soni (kishi).

Misol uchun:

2020 yilda tug‘ilib, 2020 yilda o‘lgan 1 yoshgacha bolalar soni – 6 444 kishi;

2019 yilda tug‘ilganlar soni – 841 817 kishi;

2019 yilda tug‘ilib, 2020 yilda o‘lgan 1 yoshgacha bolalar soni – 1 383 kishi;

2019 yilda tug‘ilganlar soni – 814 960 kishi;

2020 yilda 1000 tug‘ilganga nisbatan go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti – 9,4 promille ($6\,444/841\,817 + 1\,383/814\,960$)*1 000;

100 000 aholiga nisbatan o‘limning alohida sabablari koeffitsiyenti - hisobot davrida alohida sabablarga ko‘ra o‘lganlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 100 000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi (1-ilova, 26-satr);

Bolalar o‘limi (0-4 yoshdagi bolalar) koeffitsiyenti (Km_0) - 0 yoshdan 5 yoshgacha o‘lgan bolalarning har bir yoshi bo‘yicha koeffitsiyentlari yig‘indisidan iborat. Har bir yosh koeffitsiyenti go‘daklar o‘limi koeffitsiyentiga o‘xshab hisoblanadi.

1 yoshgacha bolalar o'limi koeffitsiyenti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Km_0 = \left(\frac{M_0}{N_0} + \frac{M_{-1}}{N_{-1}} \right) * 1000$$

Ushbu tartibda 1,2,3,4 yoshlar bo'yicha ham koeffitsiyentlar hisoblanib, hosil qilingan 5 ta koeffitsiyent yig'indisi hisobga olinadi:

$$Km_{0-4} = \sum_{x=0}^4 Km_x$$

bu yerda,

Km_{0-4} – 0 - 4 yoshdagi bolalar o'limi koeffitsiyenti (promille);

Km_x – x - yoshdagi bolalar o'limi koeffitsiyenti (promille).

Kutilayotgan umr davomiyligi (e_x) – x yoshda kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligini bildiradi. Odatda, kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi deganda tug'ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish yillari soni (e_0) tushuniladi. e_0 - bu vafot etish jadvalining yakuniy ko'rsatkichidir. Kutilayotgan umr davomiyligi – quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$e_x = \frac{T_x}{L_x}$$

bu yerda,

T_x – (x) yoshdagi jami aholining yashashi kerak bo'lgan kishi-yillar soni;

L_x – (x) yoshda yashayotgan aholining o'rtacha soni bo'lib, (x) yoshgacha yashaganlar soniga (x+1) yoshgacha yashaganlar sonini qo'shib, ikkiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yashovchanlik koeffitsiyenti – bir o'lgan odam soniga to'g'ri keluvchi tug'ilganlarning soni ketayotgan avlodlarning kelayotgan yangi avlod tomonidan o'rni bosishi to'g'risida taxminiy bahoni berish uchun foydalaniladi.

Yashovchanlik koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_x = \frac{N}{M}$$

bu yerda:

K_x – yashovchanlik koeffitsiyenti;

N – tug‘ilganlar soni;

M – o‘lganlar soni.

Aholi takror barpo bo‘lishining brutto-koeffitsiyenti – har bir ayolning reproduktiv davrida nechta qiz bola ko‘rishi va har yosh guruhida uni tug‘ilishning hozirgi davr darajasida saqlab qolishi mumkinligini aniqlab beradi hamda quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$KR = \alpha * KF_T = \alpha * \sum_{x=15}^{49} KF_x$$

bu yerda,

KR – aholi takror barpo bo‘lishining brutto – koeffitsiyenti;

α – tug‘ilganlar orasidagi qizlarning ulushi (y 0,488 deb qabul qilingan va ayollarning barcha yosh guruhlari uchun bir xil bo‘ladi);

KF_t – yosh guruhlari bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyenti;

$\sum_{x=15}^{49} KF_x$ – 15-49 yosh guruhidagi tug‘ilish koeffitsiyenti yig‘indisi.

Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti – tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari bo‘yicha reproduktiv yillarning oxirigacha omon qolgan bir ayoldan umri davomida tug‘ilgan qizlarning o‘rtacha soni. Aholining netto koeffitsiyenti (sof ko‘payish) 1 dan kam bo‘lsa, tug‘ilish va o‘limning hozirgi darajasi kelajakda ona avlodini bola bilan ta‘minlay olmaydi.

$$KR_0 = n p_x * KR$$

Bu yerda: **KR₀** – aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti;

$n p_x$ – o‘lim jadvali bo‘yicha x yoshdagi ayollarning yashash extimoli;

KR – aholi takror barpo bo‘lishining brutto-koeffitsiyenti.

Aholi takror barpo bo‘lishining foydalilik koeffitsiyenti.

Aholi takror barpo bo‘lishining foydalilik koeffitsiyenti tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyentini ayirmasini, ularning qo‘shish yig‘indisiga bo‘lish orqali aniqlanadi. U aholi tabiiy o‘sinh sur‘atining uni umumiy aylanmasidagi hissasini ko‘rsatib beradi.

Aholi takror barpo bo‘lishining foydalilik koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_{a.m.k.} = \frac{n - m}{n + m}$$

bu yerda:

$K_{a.m.k.}$ – aholi takror barpo bo‘lishining foydalilik koeffitsiyenti;

n – tug‘ilish koeffitsiyenti;

m – o‘lim koeffitsiyenti.

13. Demografik xavfsizlik indikatorlari va ularning chegaraviy qiymatlari. Demografik xavfsizlik – bu jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ichki va tashqi demografik xavf-xatarlardan davlatning geosiyosiy, iqtisodiy va etnik maqomining saqlab qolinishini ta‘minlaydigan darajada himoyalanganligidir. Demografik xavfsizlik indikatorlarining chegaraviy qiymatlari quyidagi formula orqali topiladi:

$$Y = (X - X_{\min}) / (X_{\max} - X_{\min})$$

bu yerda:

Y – xavfsizlik darajasi;

X – ko‘rsatkich;

$X_{\min}$ – minimal ko‘rsatkich;

$X_{\max}$ – maksimal ko‘rsatkich.

14. Aholining tabiiy o‘sishi. Avlodlar almashuvi jarayoni sifatida aholi tabiiy harakatining miqdoriy xususiyatlari bo‘lib, tabiiy o‘sinh va tabiiy o‘sinh koeffitsiyenti hisoblanadi.

Aholining tabiiy o‘sishi ko‘rsatkichi tug‘ilganlar bilan o‘lganlar soni o‘rtasidagi farqni ifodalaydi (1-ilova, 8-satr);

Tabiiy o‘sinh koeffitsiyenti aholi tabiiy o‘sinhini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish yoki tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyentlarining ayirmasi sifatida aniqlanadi (1-ilova, 9-satr).

$$K_g = \frac{N - M}{\bar{P}} * 1000$$

bu yerda,

K_g – aholi tabiiy o‘sishi (promille),

N – hisobot davrida jami tug‘ilganlar soni (kishi),

M – hisobot davrida jami o‘lganlar soni (kishi),

$\bar{P}$ – doimiy aholining hisobot davridagi o‘rtacha soni (kishi).

15. Nikoh va nikohdan ajralish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.
Aholi tabiiy harakatining joriy hisobi faqat yuridik rasmiylashtirilgan nikohlarni hisobga oladi.

Nikoh va nikohdan ajralish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) absolyut ko'rsatkichlar;
- b) nikoh va nikohdan ajralish koeffitsiyentlari.

Nikohning mustahkamlik koeffitsiyenti (K_b) – har 1000 ta tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan nikohdan ajralishlar sonini anglatadi.

$$K_b = \frac{D}{B} * 1000$$

bu yerda,

D – o'rganilayotgan davrdagi nikohdan ajralishlar soni (birlik);

B – o'rganilayotgan davrdagi tuzilgan nikohlar soni (birlik).

Absolyut ko'rsatkichlar – aniq davr uchun jami aholi yoki uning ma'lum guruhlarida nikohlar va nikohdan ajralishlar sonini yoritib beruvchi ko'rsatkichlar.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti (K_B) – hisobot davrida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi (1-ilova, 22-satr);

$$K_B = \frac{B}{\bar{P}} * 1000$$

bu yerda,

K_B – 1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti (promille),

B – hisobot davrida qayd etilgan nikohlar soni (birlik),

$\bar{P}$ – doimiy aholining hisobot davridagi o'rtacha soni (kishi).

Nikohdagi o'rtacha yosh ($\overline{A_B}$) - o'rtacha yoshdagi nikoh ko'rsatkichlari turmush qurganlarning yosh xususiyatlarini aks ettiradi.

$$\overline{A_B} = \frac{\sum_{A=0}^n A * B_A}{\sum B_A}$$

bu yerda,

A – aholining yoshi (yosh).

B_A – shu yosh guruhida turmush qurganlar soni (kishi).

Xuddi shu formula ilk nikohdagi o'rtacha yoshni hisoblash uchun ishlatiladi.

Statistikada nikoh qurayotganlarning nikohdan oldingi holatining uch turi mavjud bo'lib: nikohda bo'lmagan, tul, ajrashgan;

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti (K_D) hisobot davrida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi (o'lchov birligi - promille) (1-ilova, 24-satr).

$$K_D = \frac{D}{\bar{P}} * 1000$$

bu yerda,

K_D – 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti (promille),

D – hisobot davrida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni (birlik),

$\bar{P}$ – doimiy aholining hisobot davridagi o'rtacha soni (kishi).

15. Migratsiya jarayonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Migratsiya jarayonlarini tavsiflash uchun qator absolyut va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Absolyut ko'rsatkichlarga: ko'chib kelganlar soni, ko'chib ketganlar soni, aholining migratsion o'sishi kiradi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan chiqarishda tuziladigan ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar sonlari o'rtasidagi farqning absolyut miqdori (1-ilova, 14-satr);

1000 aholiga nisbatan ko'chib kelish koeffitsiyenti (K_I) – hisobot davrida ko'chib kelganlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi (o'lchov birligi - promille) (1-ilova, 11-satr);

$$K_I = \frac{I}{\bar{P}} * 1000$$

bu yerda,

K_I – 1000 aholiga nisbatan ko‘chib kelganlar koeffitsiyenti (promille),

I – doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar soni (kishi);

$\bar{P}$ – doimiy aholining hisobot davridagi o‘rtacha soni (kishi).

1000 aholiga nisbatan ko‘chib ketish koeffitsiyenti (K_E) – hisobot davrida ko‘chib ketganlar sonini doimiy aholining hisobot davridagi o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi (o‘lchov birligi - promille) (1-ilova, 13-satr);

$$K_E = \frac{E}{\bar{P}} * 1000$$

bu yerda,

K_E – 1000 aholiga nisbatan ko‘chib ketganlar koeffitsiyenti (promille),

E – doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni (kishi);

$\bar{P}$ – doimiy aholining hisobot davridagi o‘rtacha soni (kishi).

Migratsion o‘shish koeffitsiyenti - aholining migratsion o‘shishini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish yoki ko‘chib kelganlar koeffitsiyentidan ko‘chib ketganlar koeffitsiyentlarini ayirmasi sifatida aniqlanadi (o‘lchov birligi - promille) (1-ilova, 15-satr);

$$K_D = \frac{D}{\bar{P}} * 1000$$

Aholining umumiy o‘shishi aholining tabiiy va migratsion o‘shishi yig‘indisini hisoblash orqali aniqlanadi (1-ilova, 16-satr).

IV. Yakuniy qoidalar

16. Aholining tabiiy va mexanik harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar har oy yakunlari bo‘yicha hududlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) kesimida qayta ishlanadi.

Doimiy aholi soni, aholining tabiiy va mexanik harakati ko‘rsatkichlari va boshqa asosiy demografik ko‘rsatkichlar har chorak yakunlari bo‘yicha shakllantiriladi.

17. Demografik ko‘rsatkichlarni hisoblash hududiy statistika boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar kesimida barcha aholi punktlari bo‘yicha, Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan – O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston

Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar kesimida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995 yil;
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 30.04.1998 yil;
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 21.12.1995 yil;
4. "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni. Toshkent. 2020 yil 16 mart, O'RQ-611-son.
5. "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish to'g'risida"gi Qonun. 2020 yil 28 avgust, O'RQ-635-son;
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 387-sonli qaroriga 1-ilova "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari", Toshkent. 2016 yil 14 noyabr;
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining "Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarining shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 234-mh-sonli buyrug'i, ro'yxat raqami - 2397, 2012 yil 23 oktabr;
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining elektron axborot almashinuvi bo'yicha texnik yo'riqnoma, 2019 yil 4 mart;
9. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 26 fevraldagi PF-2240-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 fevraldagi 91, 92-sonli Qarorlarini e'lon qilish va "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 55-sonli buyrug'iga 1-ilova "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini amalga oshirish tartibi to'g'risida Yo'riqnoma", 1999 yil 29 mart;
10. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining elektron axborot almashinuvi bo'yicha texnik yo'riqnoma, 2019 yil 24 aprel;
11. "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash muassasalarida tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma, perinatal o'lim va o'lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 56-sonli buyrug'iga 2-ilova

“Perinatal o‘lim haqidagi tibbiy guvohnoma”, 3-ilova “O‘lim haqidagi tibbiy guvohnoma”, ro‘yxat raqami 2089, 2010 yil 23 mart.

12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2014 yil 28 fevraldagi 21-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy-hududiy tuzilmalarni (ob‘ektlarni) belgilash tizimi idoraviy statistik tasniflagichi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 14 noyabrdagi “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 55-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimini joriy qilish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma”, ro‘yxat raqami 698, 1999 yil 29 mart.

15. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. – DEMOGRAFIYA. Noshir, Toshkent-2011.

16. Ata-Mirzayev O.B., Народнонаселение Узбекистана: история и современность. –Т.: Ijtimoiy fikr, 2009.

17. Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.Q., Shoyusupova N.T., Gabzalilova V.T., Abduramanov X.X., Abdurahmonova G.Q., Shakarov Z.G. Demografiya. Darslik. – Т.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 364 b.

18. Денисенко М.Б., Калмыкова Н.М. Демография. – М.: ИНФРА-М, 2007.

19. Медков В.М. Демография: Учебное пособие. – Ростов-на-Дону.: Феникс, 2002.

20. Справочник по подготовке специалистов по системам регистрации актов гражданского состояния и статистики естественного движения населения. – Организация Объединенных Наций. Нью-Йорк, 2004.

21. Рекомендация по статистике международной миграции. Первое пересмотренное издание – Организация Объединенных Наций. Нью-Йорк, 1998.

22. Глоссарий терминов в области миграции. Международное миграционное право – Международная организация по миграции (МОМ). Женева, 2005.

23. Руководство по сбору данных о рождаемости и смертности. Организация Объединенных Наций. Нью-Йорк, 2005.

24. Рекомендации Конференции Европейских статистиков по проведению переписей населения и жилищного фонда 2010 года. ЕВРОСТАТ. Организация Объединенных Наций. Нью-Йорк и Женева, 2006.

25. Перепись населения и жилищного фонда. Практика стран ЕЭК ООН в раунде переписей 2000 года. Организация Объединенных Наций. Нью-Йорк и Женева, 2008.

26. <https://unstats.un.org/unsd/methodology/m49/>

Asosiy demografik ko'rsatkichlarni
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga
1-ilova

**Demografiya statistikasining asosiy ko'rsatkichlarini
hisoblash**

kishi

Satr	Ko'rsatkichlarning nomi	Ko'rsatkichlarning hisoblanishi	Ko'rsatkich (2020 yil)
1	Hisobot davri boshiga doimiy aholi soni		33 905 242
2	Hisobot davri oxiriga doimiy aholi soni	1-satr + 4-satr – 6-satr + 10-satr – 12-satr	34 558 891
3	Hisobot davrida doimiy aholining o'rtacha soni	$(1\text{-satr} + 2\text{-satr}) / 2$	34 232 067
4	Hisobot davrida jami tug'ilganlar		841 817
5	1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti, promille	$(4\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000$	24,6
6	Hisobot davrida jami o'lganlar		175 625
7	1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti, promille	$(6\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000$	5,1
8	Aholining tabiiy o'sishi	4-satr – 6-satr	666 192
9	1000 aholiga nisbatan tabiiy o'sish koeffitsiyenti, promille	$(8\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000$ yoki 5-satr – 7-satr	19,5
10	Hisobot davrida ko'chib kelganlar soni		191 086
11	1000 aholiga nisbatan ko'chib kelish koeffitsiyenti, promille	$(10\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000$	5,6
12	Hisobot davrida ko'chib ketganlar soni		203 629
13	1000 aholiga nisbatan ko'chib ketish koeffitsiyenti, promille	$(12\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000$	5,9
14	Aholining migratsion o'sishi (kamayishi)	10-satr – 12-satr	-12 543

Satr	Ko'rsatkichlarning nomi	Ko'rsatkichlarning hisoblanishi	Ko'rsatkich (2020 yil)
15	1000 aholiga nisbatan migratsion o'sish (kamayish) koeffitsiyenti, promille	$(14\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000$ yoki 11-satr – 13-satr	-0,3
16	Aholining umumiy o'sishi (kamayishi)	8-satr – 14-satr	653 649
17	Hisobot davrida onalar o'limi		156
18	100 000 tug'ilganlarga nisbatan onalar o'limi koeffitsiyenti, protsentamille	$(17\text{-satr} / 4\text{-satr}) * 100\ 000$	18,5
19	Hisobot davrida tuzilgan nikohlar soni		296 751
20	1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti, promille	$(19\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000$	8,7
21	Hisobot davrida nikohdan ajralishlar soni		28 233
22	1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti, promille	$(21\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000$	0,8
23	Hisobot davrida barcha sabablarga ko'ra o'lganlar soni		653 649
24	100 000 aholiga nisbatan o'limning barcha sabablari bo'yicha koeffitsiyenti, protsentamille	$(23\text{-satr}/3\text{-satr}) * 100\ 000$	513,0

*Izoh: 1-ildavda hisoblanishi ko'rsatilgan koeffitsiyentlarni choraklik davr uchun hisblashda bir yilda jami kunlar sonini chorakdagi kunlar soniga bo'linadi. Misol uchun: 2021 yil yanvar-mart uchun tug'ilish koeffitsiyentini hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi: $(4\text{-satr} / 3\text{-satr}) * 1000 * 365 / 91$.*

Aholi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar manbalari

1. Tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012 yil 23 oktyabrdagi 234-mh-sonli buyrug'iga 1a-ilova);
2. Nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012 yil 23 oktyabrdagi 234-mh-sonli buyrug'iga 2a-ilova);
3. Nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012 yil 23 oktyabrdagi 234-mh-sonli buyrug'iga 3a-ilova);
4. O'lim haqida dalolatnoma yozuvi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012 yil 23 oktyabrdagi 234-mh-sonli buyrug'iga 4a-ilova);
5. Ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 1999 yil 29 martdagi 55-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma"ga 6-ilova);
6. Ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 1999 yil 29 martdagi 55-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma"ga 7-ilova).

Asosiy demografik ko'rsatkichlarni
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga
3-ilova

VAFOT ETISH JADVALI

	Yoshi	Yillar oralig'i	Doimiy aholi-ning o'rtacha soni	O'lgan-lar soni	O'lim darajasi	Chiziqli korrek-tirovka	O'lim ehtimoli	Yashash ehtimoli	Individual qoldiq	Oraliqdagi o'limlar	Yashashning yillar oralig'i	Umumiy yashagan yillar	Yosh guruhlarida kutilayotgan umr davomiyligi
	x	n	nN _x	nD _x	nM _x	a _x	nQ _x	nP _x	L _x	n _d _x	nL _x	T _x	e _x
A	V	S	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N
1	0	1			=E1/D1	0,3	$C1 \cdot F1 / (1 + (1-1) \cdot C1 \cdot F1)$	=1-H1	1 000	=J1*H1	=C1*(J2+(G1*K1))	=M2+L1	=M1/J1
2	1-4	4			=E2/D2	0,4	$C2 \cdot F2 / (1 + (1-2) \cdot C2 \cdot F2)$	=1-H2	=J1-K1	=J2*H2	=C2*(J3+(G2*K2))	=M3+L2	=M2/J2
3	5-9	5			=E3/D3	0,5			=J2-K2				
4	10-14	5			=E4/D4	0,5							
5	15-19	5			=E5/D5	0,5							
6	20-24	5			=E6/D6	0,5							
7	25-29	5			=E7/D7	0,5							
8	30-34	5			=E8/D8	0,5							
9	35-39	5			=E9/D9	0,5							
10	40-44	5			=E10/D10	0,5							
11	45-49	5			=E11/D11	0,5							
12	50-54	5			=E12/D12	0,5							
13	55-59	5			=E13/D13	0,5							
14	60-64	5			=E14/D14	0,5							
15	65-69	5			=E15/D15	0,5							
16	70-74	5			=E16/D16	0,5							
17	75-79	5			=E17/D17	0,5							
18	80-84	5			=E18/D18	0,5	$=C18 \cdot F18 / (1 + (1-G18) \cdot C18 \cdot F18)$	=1-H18	=J17-K17	=J18*H18	=C18*(J19+(G18*K18))	=M19+L18	=M18/J18
19	85+	5			=E19/D19			=1-H19	=J18-K18	=J19*H19	=J19/F19	=L19	=M19/J19